

HIKOYANING STRUKTURAL TAHLILI*(“Oydin kechalarda” hikoyasi asosida)****Ko‘charova Dildora Karim qizi****Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti**Boshlang‘ich ta‘lim va sport**tarbiyaviy ishi yo‘nalishi talabasi,****Ko‘chkinova Mahliyo****Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti**Boshlang‘ich ta‘lim va sport**tarbiyaviy ishi yo‘nalishi talabasi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Abdulhamid Cho‘lponning “Oydin kechalarda” hikoyasi struktural jihatdan tahlil etildi. Hikoyadagi novellistik jihatlar va struktural birliklarning hikoya voqealar rivojidadagi ahamiyati va ularning qanday ketma ketlikda berilishi borasida fikr yuritildi.

Kalit so‘zlar: Struktura, tugun, kulminatsiya, novellistiklik, yechim, roviy, qahramon, kompozitsiya.

Bir hikoyaning struktural tahlili uchun o‘zbek adabiyotining eng yuksak o‘rinidan joy olgan ijodkorlardan biri Cho‘lponning nisbatan qisqaroq bo‘lgan “Oydin kechalarda” hikoyasining syujet qurilishi haqida to‘xtalishga qaror qildik.

Turli janrlar doirasida syujet turlari va syujet unsurlari turlicha bo‘lishi mumkin. Hikoyada ham syujet mavjud bo‘ladi, ammo syujet unsurlarining barchasi ishtirok etmasligi mumkin. Cho‘lponning “Oydin kechalarda” hikoyasi syujeti tugundan boshlanadi, hikoyaning birinchi jumlasidanoq tugun o‘rtaga tashlanadi: “Zaynab kampir bir narsadan cho‘chub uyg‘ondi”. O‘quvchida shu ilk jumlaning o‘qishi bilan “nega?” degan savol tug‘ilishi tabiiy. Aynan shunday savol uyg‘otish uchun ham yozuvchi tugunni hikoya avvalida bermoqda. Ushbu tugunga duch kelgan kitobxon ongida estetik qiziqish hosil bo‘ladi va hikoyaning davomini o‘qishga ehtiyoj paydo bo‘ladi. Kichik hikoyalarning ko‘p hollarda tugundan boshlanishi ham bejizga emas.

Shundan so‘ng voqealar asta-sekin rivojlanadi, bu rivojlanishda har bir voqea o‘zaro darajalanadi, ya‘ni birinchi yuz bergan voqeadan ikkinchisi yuqori estetik kuchga ega bo‘lib, syujet kulminatsiyasigacha xuddi shu tartibda o‘tib boradi:

Kampir “Uyqusi o‘chub ketganlikdan endi ko‘ziga uyqu kelmay”, “...pilta savat, ko‘rpa qavuq ipdan tortiub bu yil pilladan chiqaturg‘on ipakkacha “dunyoning barcha g‘amini” o‘ylab” yotdi. Shundan keyin esa har kungidan ko‘ra “bulbul bugun juda erta to‘xta”gani-yu “go‘riston va mozorlardagina bo‘laturg‘on chuqur bir jimlik...” cho‘kkani, allaqayoqdan “ ko‘ngul buzaturg‘on bir yig‘i tovushi” eshitilgani, kampir bu yig‘ini qaysi qo‘shniga tegishli ekanligini o‘ylab, parilar bo‘lsamikan deb tasmollab, oxiri yig‘ining “tovushi tanish bir xotunning tovushi kabi” ekanligi voqealar rivojini tashkil qilsa-da, hikoya syujetining kulminatsiyasi

tomon zinapoya kabi chiqib borilishi bilan Cho‘lponning syujet yaratish borasidagi mahoratini ko‘rish mumkin.

Bu hikoyaning o‘quvchini o‘ziga rom qiladigan yana bir jihati shundaki hikoya qahramon tilidan emas, balki o‘quvchi kabi xolis roviy tomonidan bayon qilinishidir. Bu usulning samarasi haqida adabiyotshunos Dilmurod Quronov shunday fikr bildiradi: “...qahramon nigohi borliqdagi o‘zgarishlarni kuzatsa, roviy nigohi qahramonga qaratiladi. Ya’ni, o‘quvchi borliqdagi o‘zgarishlarni qahramon nigohi, qahramondagi mimik-pantomimik o‘zgarishlarni roviy nigohi vositasida kuzatadi. Boshqacha aytsak, hikoyani o‘qish jarayonida bu ikki nigoh bir fokusga – o‘quvchi nigohiga jamlanadi. Tanlangan usul o‘quvchining hikoya ruhiga kirishini osonlashtirib, uning estetik kuchini oshiradi¹. Zaynab kampir kelinining uyida chiroq yarim kechada ham o‘chmaganini ko‘radi-yu, uyga kirib kelinini so‘roqlab ovoz beradi va “yosh kelin karavot yonida yig‘lab-yig‘lab qabargan ko‘zlarini yengi bilan artib” turganini ko‘radi. Shundan keyin kelinning kampirga aytgan so‘zlari quyidagicha: “Onajon, men kechalari uy poylash uchun kelin bo‘lub keldimmi?”, “mana kelin bo‘lub kelganimga bir yarim oydan oshqon bo‘lsa, shu bir yarim oying ichida ikki kechagina birga bo‘ldik... boshqa kunlarda har kecha kuta-kuta tong otdirib yuboraman”. Shu voqealar va kelinning so‘zlari hikoya syujetining kulminatsiyasini tashkil qiladi va hikoya syujeti yechim sari boradi. Kelinining hasratlarini tinglagan Zaynab kampirning “ toshdek qattig‘ bag‘ri ortiq darajada yumshag‘on”, “so‘ng onalar kabi muhabbati bilan ko‘zidan” o‘pib shirin gaplar aytib ovutgani hikoya yechimi deyishimizga to‘la asos bo‘ladigandek, bir qarashda, biroq hikoya oxirida Kampirning o‘g‘li Qodirjonning mast holda kirib kelib, qandaydir Anna haqida gapirgani bilan tugashi syujet to‘laqonli yechimga ega emas degan xulosaga kelishimizga sabab bo‘ladi.

Cho‘lponning shu hikoyasini tahlil etgan Dilmurod Quronov hikoyani novellistik hikoya deya baholaydi. Hikoyani nega aynan novellistik hikoya deya baholayotganini esa quyidagicha izohlaydi: “Oydin kechalarda”ni novellistik hikoya der ekanmiz, biz unda roviy tutgan mavqedan kelib chiqdik. Yuqorida yuritgan mulohazalarimizga tayangan holda, novellistik hikoyaning kompozitsion qurilishi: 1) roviyning xolis “kuzatuvchi” mavqeyida turishi; 2) hikoya qilinayotgan voqeaning yuz berish vaqti bilan hikoya qilinish vaqtining bir-biriga mosligi; 3) “sahnaviylik” – o‘quvchi nazdida hayot sahnasida kechayotgan voqeani tomosha qilayotganlik illyuziyasining hosil qilinishi; 4) syujetning shiddatli rivojlanishi yu kutilmagan burilishlarga egaligi bilan ajralib turadi, degan xulosaga kelishimiz mumkin. Albatta, bu xususiyatlarning mavjud bo‘lishi uchun novellistik hikoyada birgina voqea — “hayotning bir parchasi” poetik jonlantirilishi taqozo qilinadi. Ko‘rib turganimizdek, milliy nasrchiligimizda epos va dramaga xos kuchli jihatlarni o‘zida omixta etgan novellistik hikoyaning qaror topishida Cho‘lponning xizmati kattadir. Adibning “Oydin kechalarda”

¹ Дилмурод Куронов Чўлпон насри поэтикаси. – Тошкент: «Шарқ» нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош тахририяти, 2004, 48- бет

hikoyasi novellistik hikoyaning adabiyotimizdagi ilk va mumtoz namunasi sanalishi mumkin².

Cho‘lpon hikoyalari bir qarashda sodda ko‘rinsa ham, aslida hikoyaning butun kompozitsiyasi, shu jumladan syujeti ham o‘ta tartib bilan joylashtirilgan. Syujetning har bir bo‘lagi biri-biriga shu qadar singishib ketganki, ularni oddiy ko‘z bilan ajratib olish mushkul.

Biz struktural jihatdan tahlil qilishga urungan “Oydin kechalarda” hikoyasi syujeti tugun, voqealar rivoji, kulminatsiya kabi unsurlardan tuzilgan. Yechim aksariyat hikoyalarda bo‘lgani kabi kitobxonning o‘ziga qoldirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Дилмурод Куронов Чўлпон насри поэтикаси. – Тошкент: «Шарқ» нашірёт-матбаа акциядорлик компанияси бош тахририяти, 2004. 359 бет
2. Hotamov N, Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati, –Toshkent:O‘qituvchi, 1979. 364 bet
3. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. –Toshkent: O‘qituvchi, 1986. 408 bet
4. <https://sirlar.uz/oydin-kechalarda-realistik-hikoya>.

² Дилмурод Куронов Чўлпон насри поэтикаси. – Тошкент: «Шарқ» нашірёт-матбаа акциядорлик компанияси бош тахририяти, 2004, 49-50 бетлар